

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKNING KASSA OPERATSIYALARI**

**Sharipova Nigina Djo'rakulovna**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

**Mubinov Naimjon**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Samiev Mirdaler**

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Annotatsiya:** Tijorat banklarining kassa operatsiyalari esa bankning kundalik faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kassa operatsiyalari bankning mijozlari bilan hisob-kitoblarni naqd pul orqali amalga oshirish va ularga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonlaridir. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kassa operatsiyalarining mohiyati, tartibi, turlari va muhim jihatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** bank ishi, tijorat banklari, kassa operatsiyalari, mijozlarga xizmat ko'rsatish, hisoblar, qaydlar va h.k.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bank tizimi muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari moliyaviy resurslarni boshqarishda, aholining mablag'larini saqlash va ulardan samarali foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida, ya'ni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash davrida turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatida, shu jumladan tijorat banklarida bank nazorati mexanizmini yanada takomillashtirish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bank tizimining samaradorligini oshirish banklarda bank nazorati tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

Ma'lumki tijorat banklari faoliyatining barqarorligi jismoniy va yuridik shaxslar depozitlarining dahlsizligini, milliy iqtisodiyotga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirishining doimiyligini va bular asosida makroiqtisodiyotni bir tekisda rivojlanib borishini ta'minlaydi. Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini tartibga solish orqali moliya-bank tizimining yuqori darajadagi likvidligini, banklarning to'lovga qobilligini ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan to'lov tizimini yaratish orqali banklarning mijozlarini himoya qiladi. O'zbekistonda tijorat banklari ustidan nazorat tizimi shakllangan va takomillashtirib borilmoqda. Buning natijasida oxirgi yillarda mamlakatimiz bank sektori kapitalining etarlik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan deyarli uch barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etmoqda [1].

Kassa operatsiyalari bankda naqd pul bilan bog'liq bo'lgan barcha moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu operatsiyalar bankning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, mijozlarning naqd pulga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va ularning naqd mablag'larini qabul qilish imkonini beradi. Tijorat banklarining kassa operatsiyalarini to'g'ri va aniq tashkil etish mamlakatdagi naqd pul aylanishini tartibga soladi. Kassa operatsiyalari quyidagilardan iborat [2]:

- Naqd pul mablag'larini qabul qilish
- Naqd pul mablag'larini berish
- Pul mablag'larini hisobga olish va saqlash
- Kassa hujjatlarini yuritish va nazorat qilish

Kassa operatsiyalari bankning ichki tartib-qoidalarini va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bankdagi kassa operatsiyalari — bu bankning mijozlari bilan pul mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni ifodalaydi. Ular asosan kassada naqd pul bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kassa operatsiyalari banklar tomonidan tashkil etilgan tizimga asoslangan holda muayyan qoidalar va normalarga rioya qilish orqali amalga oshiriladi.

Bank kassa operatsiyalarida naqd pulni saqlash va tashish xavfsizligini ta'minlash uchun alohida xavfsizlik choralariga rioya qilinadi. Bu xavfsizlik xodimlarining joylashuvi, videokuzatuv tizimlari, kassa operatsiyalarining tizimda qayd etilishi orqali amalga oshiriladi. Kassalar naqd pul bilan ishlashda yuqori malakaga ega bo'lishi kerak, chunki kassa operatsiyalarida xatoliklar yoki firibgarliklar yuzaga kelishi mumkin. Bankda kassa operatsiyalarining to'g'riligi va xavfsizligini nazorat qilish uchun auditlar va ichki nazorat tizimlari mavjud [3]. Kassa operatsiyalarining barcha turlari bank tizimining ichki normativ hujjatlari, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy qonunlari, soliq qonunchiligi va boshqa tegishli qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Har bir operatsiya uchun bank tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar bo'lib, ular kassa operatsiyalarining qonuniyligini ta'minlaydi. Kassa operatsiyalari bankning naqd pul bilan ishlash samaradorligini oshiradi va bankning moliyaviy holatini yaxshilaydi. Kassa operatsiyalari orqali bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash mumkin. Bu mijozlarning ishbilarmonligini va bankka bo'lgan ishonchini oshiradi.

Pul-kredit siyosati inflyatsiyani jilovlash, ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning ko'payishini oldini olish, to'lov balansining muvozanatlashgan holatini saqlab turish, faol bozor kon'yunkturasini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan siyosatdir. Mazkur siyosat barcha davlatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarishi, moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirilishi barqaror pul-kredit tizimini rivojlantirishga imkoniyat tug'diradi. Ayni vaqtda, kuchayib boruvchi raqobat, o'zgaruvchan baholar sharoitida bank risklari va nobarqarorlik kuchayadi. Yirik banklarning bir vaqtning o'zida bankrot bo'lishi milliy iqtisodiyotga jiddiy ziyon etkazadi, to'lov tizimining izdan chiqishiga, pul taklifining keskin qisqarishiga olib kelishi mumkin [4]. Demak, bank tizimini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish orqali umumiy nobarqarorlik darajasini pasaytirish mumkin.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, har qanday tizimni tashkil qilishda dasturiy ta'minotdan unumli foydalanish ish sifatini va tezligini ta'minlashda muhim o'ringa ega. Videokuzatuv vositalarini o'rnatish, tashqi qo'riqlash bo'limlari bilan bog'langan tashvish-signalizatsiya qurilmalari bilan majburiy jihozlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish orqali tijorat banklarining barcha bo'linmalarida, filiallar, minibanklar, jamg'arma va maxsus kassalar, masofada joylashgan bank uskunalari y'ni bankomatlar, terminallar, info-kioskalar va boshda xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirishni amalga oshirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kassa operatsiyalari bank tizimining muhim qismi hisoblanadi. Bu operatsiyalar orqali banklar naqd pul aylanishini tartibga soladi, mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondiradi va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Kassa operatsiyalarining samaradorligini oshirish va xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston tijorat banklari ushbu yo'nalishda izchil islohotlar olib bormoqda va zamonaviy bank xizmatlarini taklif etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Azizovvaboshqalar. Bank ishi. Darslik–T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2016 yil.
2. Sh.Z.Abdullayeva. Bank ishi. Darslik–T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2010 yil.
3. Лаврушин О.И.. Банковское дело. -М.: Финансы и статистика, 2005г.
4. Маковникова Г.А., Кантров В.Е. Финансовый менеджмент. – М.: ЮРАИТ, 2011 г.
5. Шарипова Нигина Джоракуловна, Джураев Искандар. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ. Эфиопский международный журнал многопрофильных исследований , 11 (04), 66–68.
6. Sharipova Nigina Jorakulovna. Maksudov Orif Shakirovich , (2023). THE IMPORTANCE OF MONETARY REFORMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 880–883.
7. Шарипова Нигина Джуракуловна Самаркандский институт экономики и сервиса Ассистент. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. Zenodo.
8. Шарипова, Н.Д. Ақобиров, А.П., и (2023). ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. SCHOLAR , 1 (35), 66–73.
9. Жўраев М.Қ. Электр юритмалар тезлигини ростлаш усуллари Педагогик маҳорат Илмий-назарий ва методологик журнал Бухоро 2021, №23, 114-118 б,(13.00.02)
10. Jo'rayev M. Q. Scientific methodical bases of the science of electric machines academia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol.12, Issue 09, September 2022 SJIF 2022=8.252 A peer reviewed journal <https://www.indianjournals.com>
11. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya “Elektr mashinalari fanini o'qitish didaktik takomillashtirish jihatlari” INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCES AND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
12. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya “Elektr mashinalari fani rivojlanish ginezisi va mazmuni” INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCES AND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
13. Jorayev Mirjalal Kahramonovich OPINIONS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS IN TEACHING THE SCIENCE OF ELECTRIC MACHINES 76-80 British Journal of Global Ecology and Sustainable Development <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/317> ISSN (E): 2754-9291
14. Джураев Мирджалал Кахрамонович, Камалов Камал Малик угли «Синхронные машины», инновационные методы в обучении <http://www.ijaretm.com/> ISSN:2349-0012